

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	117
<b>Sh.Q.Yuldasheva</b>	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
<b>Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova</b>	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalaringning o'zgarishi .....	127
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Cynara scolymus L. O'simligidan ajratib olingen endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faoliylklari .....	133
<b>S.Israiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva</b>	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili .....	138
<b>M.K.Julihev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov</b>	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziysi bo'yicha 1993-2022-yillar oraliq'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili .....	143
<b>X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov</b>	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant Cynara scolymus L.....	149
<b>S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev</b>	
Farg'ona vodiysi Cladocera ( <i>Crustacea: Branchiopoda</i> ) lari ro'yxati.....	157
<b>Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov</b>	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
<b>M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova</b>	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
<b>M.A.Davidov</b>	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (Regel) korovin antekologik xususiyatlari .....	181
<b>X.N.Raximov, G.T.Djalilova</b>	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalariiga ta'siri .....	186
<b>M.R.Qoriyev</b>	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar .....	191
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	196
<b>R.A.Ikromov</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli .....	200
<b>S.Nishonova</b>	
Maqollar paremiologik birlik sifatida .....	205
<b>Sh.A.Tadjibaeva</b>	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	208
<b>S.S.Jabborova</b>	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalananish istiqbollari.....	213
<b>E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov</b>	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
<b>K.M.Nilufar</b>	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
<b>T.Quyliyev</b>	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli .....	227
<b>B.M.Qandov</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli .....	233
<b>Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova</b>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvismning ta'siri .....	238
<b>F.F.Muydinov</b>	
Tibbiy ta'linda media ta'limga asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
<b>Z.S.Paziljanova</b>	



УО'К: 502.171:502.131.1

**GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING OLDINI OLİSHDA XALQARO  
INSTITUTLARNING ROLI**

**ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ  
ИНСТИТУТОВ В ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИИ**

**GLOBAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND THE ROLE OF INTERNATIONAL  
INSTITUTIONS IN THEIR PREVENTION**

**To'lqin Quyliev**

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada, global ekologik nazoratning institutlarning tizimi substansional hamda funksional jihatlardan xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarni takomillashtirishning istiqboldagi vazifalari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada, xalqaro ekologik nazorat institutlarini faoliyat samaradorligi ekologik vaziyatning mahalliy, milliy va hududiy xususiyatlarga defferensial yondoshib optimal usullarni, vositalarni qo'llashga bog'liq o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье обсуждаются институциональная система глобального экологического контроля, будущие задачи совершенствования международных экологических политических отношений с содержательного и функционального аспектов. Также в статье показано эффективность международных институтов экологического контроля зависит от дифференцированного подхода к местным, национальным и региональным особенностям экологической ситуации, использования оптимальных методов и инструментов.*

**Abstract**

*This article analyzes the institutional system of global environmental control and future tasks of improving international environmental political relations from substantive and functional aspects are discussed. Also the article indicates the effectiveness of international environmental control institutions depends on a differentiated approach to local, national and regional characteristics of the environmental situation, the use of optimal methods and tools.*

**Kalit so'zlar:** qadriyat, ekologiya, siyosat, global lashuv, integratsiya, ekologik muammolar, ekologik dunyoqarash, xalqaro ekologik munosabatlar.

**Ключевые слова:** ценность, экология, политика, глобализация, интеграция, экологические проблемы, экологическое мировоззрение, международные экологические отношения.

**Key words:** values, ecology, politics, globalization, integration, environmental problems, ecological worldview, international environmental relations.

**KIRISH**

Jahonda ekologik dunyoqarashni shakllantirish nafaqat global muammolarning oldini oluvchi omil, ayni paytda ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi vosita, ekologik madaniyatni yuksaltirish usuli sifatida tan olingan. Chunki ko'pgina insoniyatni qiyinayotgan masalalar ekologik muammolar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lib, ularning echimi inson ongi, tafakkuri, aql-idroki, intellektual salohiyati va eng asosiysi asrlar davomida shakllangan qadriyatlar ishtirotkida sodir bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatlarning xalqaro siyosiy munosabatlarini ekologiyalashtirish va uni global lashtirishda faol ishtirotkini taqozo qilmoqda. Shu bois, ekologik dunyoqarashni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish va ekoliya bilan bog'liq milliy qadriyatlarini saqlab qolish, ahamiyatiga ko'ra boshqa global muammolardan qolishmaydigan jahon miqyosidagi masalaga aylandi.

Hozirgi davrda ekologik muammolarning global lashuvi natijasida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini nazorat qilishning institutsional tizimini strukturaviy-funksional tahlil qilish, unga

kompleks-sistemali, strukturaviy funksional yondashishning muqobil nazariy-metodologik masalalarini dolzarb ilmiy muammo tarzida kun tartibiga qo'ymoqda. Xalqaro ekologik nazorat tizimining strukturasini shakllantiruvchi, aniqrog'i global sistemasini tashkillashtiruvchi elementi davlatlararo, millatlararo ekologik siyosiy munosabatlardir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy manbalarni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, ekologik nazorat faoliyatini boshqarishning yo'nalishlari va xususiyatlarini o'rganish asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Ekologik nazorat tizimining qonuniy-huquqiy, ijtimoiy falsafiy asoslarini Xolmo'minov J. [1, 349], Mirzayev T.R., Ro'ziyev R., G'ulomov M.U., Jo'rayev O.Yu., Fayziev Sh.X., Qobilov Sh.R., Najimov M., N.B.Shoimov[2, 174], E.Xoshimova[3], YU.Shodimetov[4,111], D.Rasilov, S.Mamashokirov[5], E.Usmonov[6,160], A.K.Berdimuradova, V.O.Levinskaya, SH.Karimov, N.Ikromova, S.K.Maxmudov, A.T.Umarov, U.Saidovalarning ilmiy tadqiqot ishlarda yoritilgan. Yuqorida tilga olingan tadqiqotlarda ekologik siyosiy-ijtimoiy munosabatlarni oqilona tashkil qilishda xalqaro institutlarning roli hamda ekologik borliqning inson salomatligiga, sog'lom, jismonan baquvvat naslni tarbiyalashga, sog'lom turmush tarzini shakllanishiga ta'sirining muayyan tomonlari tadqiq etilib, bugungi globallashuv sharoitida shaxs ekologik dunyoqarashini yuksaltirish xususiyatlari, imkoniyatlari maxsus tadqiq etilmagan. Vaholanki, hozirgi davr realligi shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni va ahamiyatini fundamental tadqiq etish borasida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilishini talab etmoqda.

### NATIJALAR

Hozirgi davrda ekologik muammolarning globallashuvi sharoitida ekologik munosabatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarni integratsiyalashtiruvchi yadroga aylanib, jamiyatning turli nazorat tizimlarini tashkillashtiruvchi omiliga aylandi[7, 121-122]. Boshqacha qilib aytganda, *Birinchidan*, milliy ekologik munosabatlar, nafaqat muayyan davlat hududidagi ekologik nazorat tizimini, balki xalqaro ekologik munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish institutsional strukturasining asosini tashkil qiladi. *Ikkinchidan*, xalqaro ekologik munosabatlarni nazorat qilishning institutsional tizimi har doim ham milliy ekologik nazorat tizimini «reglamentlashtiruvchi» huquqiy-qonuniy norma emas. *Uchinchidan*, xalqaro ekologik munosabatlarni nazorat qilish tizimi elementlarining integratsiyalashuvi, ularning nisbiy mustaqilligini istisno qilmiyi, balki boy aloqalari, murakkab munosabatlarni belgilaydi. *To'rtinchidan*, xalqaro ekologik munosabatlar har qanday davlat siyosatining obyekti bo'lishi mumkin. Bunda milliy manfaatlar shu siyosatning xarakterini belgilaydi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu muhim metodologik tamoyillardan chetlashib, ekologik munosabatlarni nazorat qilishning, faqat funksional tomoniga e'tibor qaratadilar[8, 187]. Darhaqiqat, xalqaro ekologik munosabatlarni nazorat qiluvchi shakllangan institutsional tizimning funksional tomonlari bor. Ya'ni, xalqaro ekologik munosabatlarning subyektlari, ularning tashkiliy, texnologik jihatlarini, muayyan operatsiyalarni bajarish bo'yicha funksional aloqalarni manfaatlariga ko'ra amalga oshiradi. Ammo, xalqaro ekologik munosabatlarning mohiyatini ushbu funksiyalarning umuminsoniyat manfaatlariga mosligi belgilab turadi. Demak, ekologik munosabatlar insонning mohiyatli kuchlarini ro'yogga chiqarish uchun qanchalik mukammal sharoit yaratsa, ular shunchalik madaniy va sivizatsiyalashgan bo'ladi.

Xalqaro ekologik munosabatlarni nazorat qilishning institutsional strukturasi murakkab tuzilishga ega, ya'ni uning tarkibiga tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tashkillashtirish, boshqarish bilan bog'liq funksiyalarni kiritish mumkin. Ayni zamonda, ularni texnik-tashkiliy boshqarish (funksional) va boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi (substansional) munosabatlarga bo'lish maqsadga muvofiq. Texnik-tashkiliy munosabatlar nazorat institutsional tizimining turli elementlarini tabiatni muhofaza qilish «texnologik jarayoniga» birlashtirishdan iborat bo'lgan funksional aloqalardir. Shuning uchun ham bu munosabatlar tarkibiga texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni ekologik talablar asosida tashkil qilish va boshqarish sohasidagi funksional faoliyatlar ham kiradi.

Substansional xalqaro ekologik munosabatlarda siyosiy, iqtisodiy va qonuniy-huquqiy masalalar asosiy mavqega ega. Chunki ular boshqa ekologik munosabatlarning xarakterini belgilaydi. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida ekologik nazoratning institutsional tizimi, asosan ma'naviy-axloqiy normalarga tayanishi, muayyan darajada ideal xarakterga ega bo'lsa ham,

## ILMIY AXBOROT

obyektiv rivojlanishning tendensiyalariga bardosh bera olmadi. Bu esa, o'z navbatida, uning mavqeい susayishiga olib keldi.

Quldorlik tuzumi davrida xususiy mulkchilik ekologik munosabatlarga muayyan «tahrirlarni» kiritgan bo'lsa-da, ekologik nazoratning institutsional tizimida tub o'zgarishlarni yarata olmadi. Chunki, qullar xususiy mulk bo'lganligidan, ekologik nazoratdan manfaatdor emas edilar. O'rta asrlarda ham ekologik nazoratning institutsional tizimi ma'nnaviy-axloqiy, ilohiy reguliyativ xususiyatlarga ega bo'lib qolaverdi. Yirik industrial ishlab chiqarish va erkin yollanma mehnatga asoslangan xususiy mulkchilik shakllanishi bilan mulk egalarining tabiatga munosabatida o'zgarishlarga ehtiyoj vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning tobora rivojlanishi, yirik mashina ishlab chiqarishning taraqqiyoti ekologik nazorat tizimida xalqaro munosabatlarni taqozo qildi. Keyinchalik, rivojlangan industrial va postindustrial mamlakatlar ekologik jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarildi, xalqaro ekologik nazorat tizimining integratsiyalashish tendensiyasini belgilab berdi.

Sobiq sotsialistik sistema davrida xususiy mulkchilik tugatilib, barcha moddiy va tabiiy resurslar davlat mulkiga aylantirilishi, har qanday nazorat tizimining mafkuralashishi, nazoratda xalq ommasining ishtiroki deklarativ harakter kasb etishi qanday oqibatlarga olib kelganligini tarixiy tajribalar isbotlab berdi. Mustaqillikka erishgan davlatlarning tajribalari, xususan, demokratiya tamoyillarga asoslangan ko'p ukladli ishlab chiqarish va muqobil mulkchilik shakllari, nafaqat ularning ekologik samarali faoliyatlarini, balki nazorat tizimining yuqori darajasini taqozo qilmoqda. Eng muhim, kishilar uchun ekologik faoliyatning yangi, istiqbolli yo'nalishlari va shakllari uchun imkoniyatlar yaratadi.

## MUHOKAMA

Hozirgi davrga kelib, planetar masshabda insoniyatning normal yashashi uchun qulay ekologik sharoit yaratish, dinamik o'sib borayotgan ehtiyojlari va orzu-istaklarini qondirish darjasasi ekologik nazorat tizimi samaradorligining muhim mezonlaridan biridir. Ammo ma'muriy-buyruqbozlik tizimida shakllangan ekologik munosabatlar, sun'iy ravishda yaratildi va hayotga joriy qilindi. Natijada, tabiatni muhofaza qilishning shaxs manfaatlari bilan bog'liq motivlari ahamiyatini yo'qtdi. Hozirgi zamonda ekologik nazorat samaradorligini belgilovchi mezonlar tizimida, uning umuminsoniyat manfaatlariga mosligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, milliy manfaatlar ichki motiv hisoblansa, umuminsoniyat manfaatlari tashqi motivdir. ularning uyg'unlashuvi esa, ekologik nazorat xalqaro tizimining motivatsion birligini va rivojlanish darajasini ko'rsatadi.

Xalqaro miqyosda ekologik axborotlarni ayriboshlash ekologik nazorat tizimi integratsiyasining darajasini ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. Ma'lumki, axborot ayriboshlash ijtimoiy mehnat taqsimotining hosilasi bo'lib, xalqaro bozor munosabatlarda alohida maqomga ega bo'lib bormoqda. Zero, bozor *faqat tovar-pul munosabatlarini ifodalaydigan iqtisodiy kategoriyaning mazmuni emas, balki ekologik nazorat institutsional tizimining muhim elementidir*. Ya'ni, bozor ekologik nazorat obyekti va subyektining munosabatlarini aniqlash va baholash maydoni, «iqtisodiy makon» hisoblanadi. U nafaqat ekologik raqobatbardosh tovarlarni ayriboshlashni tashkil qilish vositasi, balki bevosita ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini nazorat qiladigan universal ijtimoiy hodisadir.

Bozorning universal nazorat funksiyasi: ishlab chiqaruvchi va iste'molchi, talab va taklif, turli toifadagi kishilarning turli ehtiyojlari va manfaatlari, umuman, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'nnaviy va boshqa munosabatlarga ta'siri bilan xarakterlanadi. Jahan bozorining infrastrukturasi va kommunikatsiyasi shakllanishi bilan bu munosabatlar globallashmoqda va xalqaro nazoratning institutsional tizimi shakllanmoqda. Hozirgi davrida xalqaro bozor munosabatlarda ekologik axborot ayriboshlashning sifati va rivojlanish darjasasi jamiyat ekologik nazorat tizimi mukammallik darajasini aniqlovchi eng muhim mezonga aylanmoqda.

XX asrning boshlarigacha xalqaro axborot bozorini maxsus o'rganish bilan shug'ullanilmagan. Ammo ekologik soh mahsulotlarga raqobatning tobora keskinlashib borishi va maksimal iqtisodiy foyda va qulay ekologik muhitga intilishning kuchayishi ekologik marketingni keltirib chiqardi. Ekologik marketingning asosiy funksiyasi aholi turli qatlamlarining turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini, talablarini chuqur tahlil qilishib, ularda yangi zamonaviy tovarlarga qiziqish uyg'otishlari, bozor qonunlarini chuqur o'rganish asosida ishlab chiqaruvchi va iste'molchi, talab va taklifni uyg'unlashtirib, korxonalar iqtisodiy foydasining doimiy o'sishini, ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishdan iborat. Mazkur sistemaning rivojlanish darjasasi ekologik nazorat tizimining

sifati va mukammallik darajasini ko'rsatadi. Biroq bozor munosabatlari nazorat qilishda davlatning bu jarayonga aralashuvini cheklash zarur. Zero, ayrim mamlakatlarda davlatlarning ichki ekologik siyosati xalqaro ekologik munosabatlarni tashkillashtirish va boshqarish tamoyillariga mos kelmasligi mumkin.

Har qanday davlatda ekologik munosabatlarni nazorat qilish institutsional tizimining rivojlanish darajasi fuqarolarini ekologik toza mahsulotga ehiyojini va iste'mol munosabatlarni shakllantirishi bilan uzviy bog'liq vazifalarni bajaradi, ya'ni: *birinchidan*, ekologik toza iste'mol tovarlariga talabni shakllantiradi va ishlab chiqarishni ekologik raqobatbardosh mahsulot turlarini tayyorlashga undaydi; *ikkinchidan*, iste'molchilarning daromadi bilan ekologik toza mahsulotga talablarini muvofiqlashtiradi; *uchinchidan*, ekologik toza mahsulot iste'moliga tovarlarning «ekologik qiymati» va bahosi katta ta'sir ko'rsatishini «yumshatadi». Moddiy imkoniyatlar chegaralangan sharoitida mablag'lardan oqilona, ratsional foydalanish yo'llarini ko'rsatish ham ekologik nazorat tizimining vazifalaridan biridir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlар - integratsiyasi kuchayib borishi bilan, yuqorida ko'rsatilgan ekologik vazifalarning globallashish tendensiyasi ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Boshqacha aytganda, dunyo miqyosida kengayib boruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy aloqalar tizimi xalqaro ekologik munosabatlarning gorizontal va vertikal yo'nalishlarda uzviy taraqqiyotini, ayni zamonda ekologik nazorat institutsional tizimi integratsiyalashuvini ham ko'rsatadi.

Xalqaro ekologik munosabatlар – manfaatlar munosabati shaklida namoyon bo'ladi. Turli yo'nalishdagi va xarakterdagi manfaatlarning tutashuvi natijasida xalqaro ekologik munosabatlarni nazorat qilishning umumiyligi tizimi shakllanadi. Ma'lumki, har bir davlat o'z ekologik ehtiyojlarini qondirish maqsadida siyosiy faoliyat doirasini, va ularni amalga oshirish usul-vositalarini belgilab oladi. Ammo, ularning manfaatlari boshqa davlatlar manfaatlariaga mos kelmasligini bartaraf qilish zaruriyati xalqaro nazorat institutsional tizimga ehtiyojni vujudga keltiradi. SHu nuqtai nazardan, davlatlar o'z milliy ekologik manfaatlarni amalga oshirish jarayonida, umuminsoniyat manfaatlariaga xizmat qildilar. Xalqaro ekologik nazorat tizimining darjasini, ana shu jarayonning kishilar tafakkurida qanchalik ongli tarzda namoyon bo'lishiga bog'liq.

Inson ekologik nazorat tizimining asosiy subyekti hisoblanadi. Zero, insonlarning ongli ijtimoiy munosabatlari tizimi jamiyatni tashkil qilar ekan, demak, uning har qanday nazorat instituti inson faoliyati bilan bevosita aloqadordir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomonidan, ekologik nazorat tizimi markazida inson turadi, chunki ekologik munosabatlarni inson harakatga keltiradi. Ikkinci tomonidan, ekologik nazoratning har qanday strukturaviy elementi konkret shaxs, ijtimoiy birlik (shu jumladan, xalqaro hamjamiyat) uchun xizmat qiladi. Bu jarayonda konkret inson va muayyan ijtimoiy birlikning «ekologik sifati», xalqaro munosabatlarning «konturi» shakllanadi.

Xalqaro ekologik nazorat tizimining subyekti bo'lish uchun har bir davlatda ekologik siyosiy munosabat madaniyati va ularni moddiylashtirishning institutsional tizimi shakllangan bo'lishi kerak. Davlatlarning ekologik siyosiy munosabat madaniyati, ularning fuqarolari tomonidan o'z milliy ekologik ehtiyojlarini anglab etishi, intellektual bilmalari, tafakkur tarzi, dunyoqarashi mazmuni, e'tiqodi xarakteri, ideali hayotiyligi, siyosiy mavqeい, huquqiy qarashlari, axloqiy sifatlari, voqelikka ilmiy munosabati va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Ta'kidlash joizki, konkret insonning ushbu sifatlari ekologik xalkaro munosabatlarga bevosita ta'sir qilmasa-da, bilvosita ta'sir ko'rsatib, ekologik siyosatning yo'nalishi, sifati va samaradorligini ta'minlaydi.

Hozirgi zamonda xalqaro ekologik munosabatlarni: o'zaro hamkorlik, shartnomalarni ijro qilish intizomi, hurmat va muomala madaniyatidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, xalqaro ekologik munosabat taraqqiyotining yuqorida ko'rsatilgan umumiyligi shartlari «ekologik mafkura postulatlarini» taqozo qiladi va ular bashqa global muammolar echimini topishga yordam beradi. Shuning uchun ham, hozirgi davrda, rivojlangan mamlakatlarda ekologik xalqaro munosabatlarda katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston ham ushbu jarayonga integratsiyalashib, bu borada sezilarli yutuqlarga erishdi.

Xalqaro ekologik nazoratning institutsional tizimiga har bir davlat o'z manfaatlari asosida yondoshadi, uni o'zlashtiradi, ya'ni «iste'mol» qiladi hamda yangi elementlar bilan boyitib, transformatsiyalashiradi. Agar konkret davlat shakllangan xalqaro ekologik nazorat institutlarining tamoyillarini, talablarini qanchalik chuqur va to'la o'zlashtirib, milliy ekologik hayotiga tadbiq qilsa, uning xalqaro ekologik nazorat tizimiga moslashish (adaptatsiya) darjasini shuncha rivojlangan

## ILMIY AXBOROT

bo'ladi. Har bir davlatning individual milliy ekologik nazorat tizimi xalqaro ekologik munosabatlarning obyekti hisoblanadi. Shuning uchun milliy va xalqaro ekologik nazorat tizimini, global mashtabda, aynan bir hodisaning alohidalik va umumiylilik munosabati tarzida qarash kerak. Xususan milliy darajasida, uning umumiylilik moddiy-texnik bazasi, madaniyatni sistemasini avtanom rivojlantirish haqidagi fikrlar g'aliz xulosalarga olib keladi.

Xalqaro ekologik munosabatlarda alohida davlat va xalqaro ekologik nazorat tizimining strukturasi hamda funksiyasi obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra aynan bo'lishi amaliy jihatdan mumkin emas. Ya'ni, ayrim davlatlarning ekologik nazorat institutsional tizimi, strukturasi hamda funksiyasi jihatidan: xalqaro ekologik nazorat tizimidan orqada qolishi, mos kelishi yoki undan mukammallik darajasiga ko'ra yuqori bo'lishi mumkin. Agar alohida davlatning ekologik nazorat tizimi xalqaro tashkiliy tamoyillardan orqada qolsa yoki unga zid bo'lsa integratsiya jarayoniga putur etadi.

**XULOSA**

Ekologik muammolar globallashuvi va keskinlashuvi insoniyatning tabiatga munosabatini tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Bu muammo echimini topish, eng avvalo, kishilarning ekologik dunyoqarashi va madaniyatida yuz berayotgan o'zgarishlar tarixiy genezisini, mohiyatini va funksional ahamiyatini o'rganishni taqazo etmoqda. Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

*Birinchidan*, xalqaro ekologik munosabatlarning universal va integrativ xarakteri umuminsoniyat manfaatlariga mos kelishi bilan xarakterlanadi; xalqaro ekologik nazoratning institutsional tizimi insonning tabiatga munosabat xarakterini: foydali yoki zararli, samarali yoki samarasiz yo'nalishlarga ajratib baholaydi.

*Ikkinchidan*, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarni nazorat qilishning institutsional tizimi substansional hamda funksional jihatlardan nazoratning texnologik jarayonini global maqsadlarga moslashtiradi;

*Uchinchidan*, jamiyatni bozor munosabatlarga asoslanishi ekologik nazoratning yangi tizimini vujudga keltirib, bozor infrastrukturasi elementiga aylanmoqda;

*To'rtinchidan*, xalqaro ekologik munosabatlarning nazorat tizimi normativ xarakterga ega bo'lib, turli texnik-texnologik, huquqiy, axloqiy qoidalar va tamoyillar vositasida, milliy xususiyatlarni e'tiborga olib, tartibga solinadi va boshqariladi.

Jamiyat taraqqiyotida insonning ekologik nazorat faoliyati, uning substancial ijtimoiy - mohiyati bo'lib, tabiatni biosfera muvozanati qonuniyatlarasi asosida o'zgartirish hamda o'zlashtirish faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish jarayoni samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Har qanday ijtimoiy-siyosiy faoliyat, shu jumladan, boshqarish va nazorat madaniyatni ham ko'p jihatdan, jamiyat ustqurma tizimining takomiliga bog'liq. Ayniqsa, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangisiga o'tish davrida bu talab yanada kuchayadi. O'zbekistonda totalitar tuzumdan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida, eski boshqarish va nazorat tizimi tugatilib, tamomila yangi, milliy taraqqiyot ehtiyojlariga mos keladigan sistema yaratilmoqda. Mamlakatimizda tobora chuqurlashib borayotgan islohotlar jumladan, modernizatsiyalashtirish va demokratiyalashtirish jarayonlari yangi ekologik tafakkur, dunyoqarash, e'tiqod, mafkura va sifat jihatidan yuqori darajadagi boshqarish madaniyatni taqozo etadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Xolmo'minov J., Ekologiya va qonun monografiya /O'zR Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi- T.: Adolat, 2000;- B.349.
2. Shoimov N.B., O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining ekologik qonunlar ijrosini ta'minlashdagi roli, vazifalari avtoref.diss.... yuridik fan nomzodi.: /O'zR ichki ishlar akademiyasi T.2007;-B174.
3. Xoshimova E.S. Ekologiya problemasida global va zonal munosabatlar dialektikasi. -T.: «Fan», 1986.
4. Shodimetov Yu. Региональные проблемы социальной экологии. – Т.: Ўзбекистон 1992. - С. 111.
5. Mamashokirov S. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дис.... док. филос. наук. -Т.: 1997.
6. Usmonov E.M. Социально-философские проблемы интегратции экологической политики государства Центральной Азии в современных условиях. - Т.: «Фан» 2006; - с. 160.
7. Mamashokirov S., Usmonov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari.T.: «Fan» 2009.-b121-122.
8. Najimov M.K. Davlatning ekologik funksiyasi (nazariy, huquqiy amaliy masalalar): yuridik fan.nomzodi...Avtoref./M.K.Najimov; O'zR Ichki ishlar vazirligi, Akademiya. – Toshkent, 2004.-B.24.
9. Avramenko I.M. Международное экологическое право. Ростов н/Д.: Феникс, 2005. С.187.

10. Ibrokhimov F.A. (2023) Modern pedagogical approaches in legal education. GOLDEN BRAIN. Volume 1, Issue 32. – pp. 174-180.
11. Ibrokhimov F.A. (2023) Din va huquq. Academic research in educational sciences, №1. – pp. 814-816.
12. Ibrokhimov F.A. (2023) Improving Youth Law Culture Based on the Cluster System and Modern Pedagogical Approaches. Miasto Przyszłości, Volume 41. – pp. 1-4.
13. Farhod Ibrohimov. (2022) Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'nnaviy va axloqiy qarashlari xususida. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Volume 5, Issue 28. – pp. 174-180.